

**“Bilim” axborot-kutubxona markazi**

Ilmiy –uslubiyat bo’limi

Axborot-bibliografiya bo’limi

# **TA’ZIM SIZGA, USTOZ – MURABBIYLAR!**



**1-oktabr – “O‘qituvchi va murabbiylar kuni“ga bag‘ishlangan**

**uslubiy tavsiyanoma**

Toshkent – 2017

## Muqadimma

**“...o‘zining iste’dodi va mahoratini, ko‘z nuri va qalb qo‘rini baxsh etib, yosh avlodimizga bilim, ilm-u fan sirlari va odamiylik saboqlarini o‘rgatadigan sizdek mo‘tabar zotlarga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi, albatta”.**

**Islom Karimov**



Ulug‘ va sharaflı kasblardan biri bu murabbiylikdir. Mustaqilligimiz sharofati hamda Birinchi Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida milliy qadriyatlarimiz va milliy manfaatlarimizga asoslangan

zamonaviy ta‘lim tizimini yaratish, ilg‘or bilimlarga ega bo‘lish , jismonan baquvvat yosh avlodni tarbiyalash masalasi kun tartibigi qo‘yildi.1996-yil 27 dekabr kuni Birinchi Prezidentimiz I Karimov tomonidan 1-oktyabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” ni nishonlash to‘g‘risida farmoni qabul qilindi.1997-yildan 1 oktyabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”-umumhalq bayrami sifatida keng nishonlanishi ustozlarga bo‘lgan yuksak e‘tirofdır.

Mamlakatimizda yosh avlodni intellektual va ma‘naviy salohiyatini yuksaltirish, ularni ona Vatanga muhabbat istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida sog‘lom va barkamol etib voyaga yetkazishga qo‘shgan salmoqli hissasi, yoshlarga ilm-fan asoslarini, zamonaviy kasb-hunarlarini o‘zlashtirishdagi jonkuyarligi, ta‘lim –tarbiya tizimidagi ko‘p yillik samarali mehnatlari uchun aziz ustozlarga “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta‘limi xodimi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvonlar bilan taqdirlanib kelinmoqdalar. Bu o‘z navbatida

pedagog va murabbiylarimizni o‘z qobiliyat va mahoratlarini kengroq namoyon etish uchun zamin yaratadi. Qo‘yida sizning e‘tiboringizga Ustozlarga bag‘ishlangan tadbir ssenariysini havola etamiz.

Qo‘llanmadan axborot-kutubxona va axborot-resurs markazi mutaxassislari hamda maktab, kollej o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Bilim bog‘ida bog‘bonsiz, muallimlar,  
Sharaf tog‘iga narvonsiz, muallimlar.  
Hayot porloqdir ilm-u ma‘rifat birlan,  
Charog‘siz ham charog‘bonsiz, muallimlar.  
Sinovlar kashf etib ketgan sinoatlar,  
Bashar dardiga darmon – Siz, muallimlar.  
Zakovat kemasiga Beruniyning ham  
O‘zingiz ilk ummonsiz, muallimlar.  
Jahon osmoniga Sulton Ulug‘bekni  
Uzatgan ilk osmonsiz, muallimlar.  
Bilim – mangu xazon bo‘lmas ziroatdir,  
O‘zingiz mangu dehqonsiz, muallimlar.  
Jaholatdin qutulg‘ay bir kuni olam,  
Metin qo‘rg‘on-u posbonsiz, muallimlar.  
Gul-u chechaklaringizdir o‘g‘il-qizlar,  
Tun-u kun siz mehribonsiz, muallimlar.  
Ulug‘siz, xokisor-u kamtarindirsiz,  
Dil-u jonsiz qadrtonsiz, muallimlar.  
Buyuk ustoz – Vatandir, ota yurt asli, Ona yurt,  
O‘zbekistonsiz, muallimlar.

***Sirojiddin Sayyid***

“Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qtuvchilik va murabbiylikdir.”

**Islom Karimov**

“Bugun dunyodagi eng ulug‘ va sharafli kasb egasi bo‘lgan aziz ustozlarga samimiy tilaklarimizni izhor etar ekanmiz, buyuk mutafakkir bobomiz. Alisher Navoiyning: “Muallim zoti ezgulik va ma‘rifat yo‘lining beminnat charog‘onidir”, degan hikmatli so‘zlari beixtiyor yodimizga tushadi.”

**Islom Karimov**

“...Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma‘suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma‘naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.”

**Islom Karimov**

Bilinga chanqoq iste‘dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoyi qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir.

**Islom Karimov**

Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta‘lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim...”

**Islom Karimov**

Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak – tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan asrab o‘sdurmakdur.

**Abdulla Avloniy**



## **TA’ZIM SIZGA, USTOZ - MURABBIYLAR!**

1 oktabr - “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” - umumxalq

bayramiga bag‘ishlangan tadbir stsenariysi

*Kutubxona zali va sahnasi bayram ruhiga monand bezatilgan va jihozlangan. Zal bo‘ylab ohanrabo kuy taraladi. Sahnaga tadbirni olib boruvchi chiqadi.*

### **1-boshlovchi:**

— Ey, aziz muallim, aziz muallim,

Sen ulug‘ zotlarga bergansan ta’lim.

Yey, aziz muallim, aziz muallim,

Senga biz abadiy etgaymiz ta’zim.

***Abdulla Oripov***

**1-boshlovchi:** — Assalomu alaykum, mo‘tabar ustozu murabbiylar! Assalomu alaykum, qadrlı mehmonlar va hamkasabalar! “Ta’zim sizga, ustoz-u murabbiylar!” deb nomlangan tadbirimizga xush kelibsiz!

**1-boshlovchi:**—Jonajon O‘zbekistonimizda hormay-tolmay fidokorona mehnat qilayotgan, davlat va millat manfaatlarini yurakdan his etayotgan aziz ustozlar bilan faxrlanamiz. Ta’lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish , uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish , milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashda,tabiiyki bunday ulug‘ va sharaflı vazifalarnı hayotga tatbiq etish ustozlar, o‘qituvchi – muallımlar, ta’lim xodımlari zimmasiga tushadi. Shunday ekan Iste’dodli, salohiyatli, har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda o‘z zimmasiga katta mas’uliyatni olgan qadrlı muallim va murabbiylar! Barchangizni ulug‘ ayyom bilan muborakbod etamiz!



Sizlar uchun aziz bo'lgan ushbu bayram bilan tabriklash va kechamizni ochib berish uchun so'zni

“Bilim” AKM deriktori H.Karimovaga beramiz.

Marhamat:

*(AKM rahbari barchani bayram bilan tabriklab, kechani ochiq deb e'lon qiladi)*

**1-boshlovchi:**— «Ustoz» deganda har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat-yehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o'lchab, ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi.

Dono xalqimizning bir naqlida: «Sen odamlarga bir yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, bug'doy ek; o'n yil yaxshilik qilmoqchi boisang, tok ekib, bog' qil; umr bo'yi yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, muallimlik qil», deyilgan. Demak, o'qituvchilik eng olijanob kasbdir.

**1-boshlovchi:** — Sohibqiron bobomiz Amir Temur uch holatda zudlik bilan otdan tushar ekan: ustozini uchratib qolganida, non bo'laklarini yerda ko'rganida va qabriston yonidan o'tayotganida. Demak, Sohibqiron muallimlarga nisbatan juda

hurmatda bo'lgan. Bu ulug' zotdagi ezgulik va insoniylik xislatlarini otonasi va ustozlari tarbiyalagani barchamizga tarixiy manbalardan ma'lum.

Keling endi navbatni “Ustoz qalblarda mangu” mavzusida she'rxonlikka bersak marhamat

*( navbat maktab yoki kollej o'quvchilari tomonidan tayyorlab kelingan Ustozlarga bag'ishlangan she'lar guldastasiga beriladi )*

**1-boshlovchi:** — O‘qituvchi va murabbiylarni qadrlab, haqli ravishda «Ustoz otangdek ulug‘», deya buyuk zotga ehtirom ko‘rsatamiz. Nafaqat o‘tmishda, balki bugungi kunda ham qalbi quyosh ustozlarni ardoqlash, ularga hurmat bajo keltirish qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Yurtboshimiz va davlatimiz tomonidan ustozlarga doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib kelinmoqda. 1997-yildan e‘tiboran O‘zbekiston Respublikasining «O‘qituvchi va murabbiylar kuni»ni belgilash to‘g‘risida»gi qonuniga binoan, har yili 1oktabr - “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”- umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Bu sananing dam olish kuni deb e‘lon qilinishi barcha o‘qituvchi va murabbiylar bilan bir qatorda keng jamoatchilikni ham mamnun etdi. Haqiqatan ham, hech bir davlatda bizdagidek o‘qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanmaydi.

( So‘z navbati AKM bilan hamkorlikda faoliyat yuritayotgan maktab yoki kollejdandan taklif qilingan Ustozlardan biriga beriladi )

**O‘qituvchi:** — Har yili bayram munosabati bilan Prezidentimizning biz o‘qituvchi-murabbiylarga yo‘llaydigan tabrik so‘zlari, bayram arafasida bir guruh o‘qituvchi va murabbiylarning yuksak unvonlar bilan mukofotlanishi, ustozlarga davlatimiz rahbari tomonidan ko‘rsatilayotgan hurmat, e‘tibor va g‘amxo‘rlikning amaldagi yorqin ifodasidir. Ta‘lim tizimida qo‘lga kiritayotgan yutuqlarimiz xalqaro hamjamiyat tomonidan alohida e‘tirof etilayotgani barchamizga katta g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Davlatimiz tomonidan bizga mehnat qilishimiz uchun zarur qulaylik va sharoit yaratilib berilgan ekan, bunga javoban o‘qituvchi o‘zining samarali mehnati bilan javob qaytarishi kerak. Buning uchun fidoyi bo‘lishimiz, o‘z ustimizda tinimsiz ishlashimiz, malakamizni doimo oshirib borishimiz, keng fikrlaydigan, ilg‘or pedagogik va axborot-



kommunikatsiya texnologiyalaridan amalda unumli foydalanadigan, ijodkor, yoshlar yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilat egasi bo'lishimiz shart.

### ***O'quvchilar ustozlariga guldasta taqdim etadilar.***

**1-boshlovchi:** — Maktab va mahallani bir-biridan ayricha tasavvur qila olmaymiz. Ular o'rtasidagi mustahkam aloqa aslida uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda maktab va mahalla o'rtasidagi mustahkam aloqa aslida uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda maktab va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish davlat miqyosidagi masalalardan biriga aylandi. Bayram tadbirimizda mahalla fuqarolar yig'ini raisi ishtirok etyapti.

### **Mahalla fuqarolar yig'ini raisi sahnaga taklif etiladi.**

- *Kavsar Turdiyeva so'zi, Anor Nazarov musiqasi bilan yaratilgan «Ustozlarim» qo'shig'ini musiqa jo'rligida bir o'quvchi ijro etadi. O'g'il-qizlar esa raqsga tushadilar.*

### **O'quvchi:**

- Tinglang, ta'riflarimiz siz uchun!

*Sahnaga bir necha o'quvchi chiqib, hikmat-maqollardan namunalar aytadi:*

- Muallim — jamiyat ko'zgusi.
- Tarbiyachi ongni onga ulaydi.
- Ustozning so'zi — mangu mash'ala.
- Ustozning marhamati — quyoshdek hammaga teng.
- O'qituvchining ta'limi — insoniyatga yorug'lik.
- O'qituvchi ma'no dengizining duridir.

- Yaxshi ustoz nomardni mardga aylantiradi.
- Odobni hamma yaxshi ko‘radi, o‘qituvchi esa odobsizni ham mehri bilan yaxshilar qatoriga qo‘shadi.

Ta‘rifiga g‘azal bitsang, she‘r yozsang,

Yer-u ko‘kda berur sado muallim.

Qalb me‘mori, dil chinori — ustozdir,

Farzand mehri ko‘ngilda jo muallim.

### ***Normurod Narzullayev***

*Bormi murabbiydan baxtliroq inson,*

*Shogirdlari qilsa yuksakka parvoz.*

*Boshimizga tojsiz, bor bo‘ling omon,*

*Tabarruklar ichra tabarruk ustoz!*

### ***Yerkin Vohidov***

**1-boshlovchi:** — Qadrli ustozlar! Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qilib aslo hormang! Bolajonlik va insoniylik sizlarni hech qachon tark etmasin! Fan bog‘ining bog‘boni bo‘lib, ziyo bog‘ida yetishtirayotgan nihollaringiz kamolini ko‘rishdek saodat barchangizga nasib etsin! Bayram hali davom etadi. Marhamat, barchangizni davraga taklif qilamiz.

*To‘lqin so‘zi, Sobir Boboyev musiqasi asosida yaratilgan «Aziz ustozlar!» qo‘shig‘ini musiqa jo‘rligida maktab xor jamoasi ijro etadi.*



## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov, I. Demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir [Matn] Jild 19 . / I. Karimov. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 357 b. - ISBN 978-9943-01-745-0 (muqovada)
2. Karimov, I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch [Matn] / I. Karimov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Isomiddinov, S., Ummarov, A. Barhayot ustozlar [Matn] / S. Isomiddinov, A. Ummarov. – Toshkent: Tafakkur, 2009. -176 b.
4. Normurodov, B. Zukko ustozlar [Matn] / B. Normurodov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. - 130 b. - ISBN 978-9943-08-100-0
5. Rizoqulov, B. O'quvchilar muvaffaqiyati [Matn] / B. Rizoqulov // Ma'rifat, 2015. – 26 sentyabr
6. Fayzullo, A. Ustoz va shogird [Matn] / A. Fayzullo. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 260 b.
7. Shakirov, B. Ustoz suhbatlari [Matn] / B. Shakirov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 352 b. - ISBN 978-9943-27-119-7
8. Ustozlarning ustozlari [Matn] // Ma'rifat, 2015. – 26 sentyabr
9. Hakimov, K. Ватан мадҳин қўйлаган устоз [Matn] / K. Hakimov. – Toshkent: Istiqlol nuri, 2014. – 152 b. - ISBN 978-9943-4770-3-5
10. Homidiy, Hamidjon. Ustozlar sabog'i aql chirog'i [Matn] / H. Homidiy. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2011. – 112 b. – ISBN 978-9943-06-342-6

**Tuzuvchilar: Xudoyberdiyeva S., Tohirova D.**